

“TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAXOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH”

Sodiqov Z.

Andijon davlat texnika insituti katta o'qituvchisi

Xamidov Mexriddin

Ilmiy tatqiqotchi; Andijon davlat texnika insituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20554652>

Kalit so'zlar: Kredit riski, baxolash tizmlari, takomillashtirish, kredit portfeli, mustaqil ish.

Keywords: Credit system, rating systems, collection, credit portfolio, independent work.

Ключевые слова: Кредитная система, рейтинговые системы, взыскание долгов, кредитный портфель, самостоятельная работа.

Annotatsiya

Biz bilamizki banklarda eng katta risk bu kredit riski hisoblanadi shuning uchun har bir bank kredit riskiga juda katta ahamiyat qiladi chunki har foyda orqasida uning haf hatari ham bo'ladi shu sababdan risklarni boshqarish banklarga juda katta foyda olib keladi. Shu bois hozirda bor kredit risklarini baholash mexanizmlarini takomillashtirmoqda va keyinchalikda risklar salmogini kamaytirish uchun.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan asosiy operatsiyalardan biri kreditlash jarayonidir. Kreditlash orqali banklar iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtiradi, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Biroq kredit operatsiyalari bilan bir qatorda bank faoliyatida turli xil risklar ham yuzaga keladi. Ushbu risklar ichida eng muhim va keng tarqalgan turlaridan biri kredit riski hisoblanadi. Shuning uchun kredit riskining iqtisodiy mazmunini o'rganish bank faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit riski deganda bank tomonidan berilgan kredit mablag'larining qarz oluvchi tomonidan o'z vaqtida va to'liq qaytarilmasligi natijasida bankning moliyaviy yo'qotishlarga duch kelish ehtimoli tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, kredit riski qarz oluvchining o'z majburiyatlarini bajarmasligi yoki qisman bajarishi bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy xavf hisoblanadi.

Kredit riski banklarning daromadiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar kreditlar o'z vaqtida qaytarilsa, bank foiz daromadi oladi va o'z faoliyatini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aksincha, kreditlar qaytarilmasa yoki muammoli kreditlar ulushi ortib ketse, bankning moliyaviy natijalari yomonlashadi va bu bank tizimining umumiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tijorat banklari kredit riskini kamaytirish maqsadida turli xil usullardan foydalanadilar. Jumladan, qarz oluvchining kreditga layoqatligini baholash, garov ta'minotini talab qilish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, kredit monitoringini amalga oshirish va muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmlarini joriy etish shular jumlasidandir. Ushbu choralar banklarga kredit riskini kamaytirish va kredit portfelining sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Barcha rivojlangan davlatlarda bank tizimi iqtisodiyotning boshqa tizimlariga qaraganda eng qattiq nazorat qilinadigan obyekt hisoblanadi. Bank faoliyati "pul savdosi" bilan shug'ullanuvchi boshqa tuzilmalar faoliyatiga nisbatan ko'proq umumiy xususiyat kasb etadi. Banklar mijozlar, tashkilotlar, sanoat va tijorat korxonalarini va xususiy shaxslarning himoyasini o'z zimmlariga

oladilar va o'z qarzdorlarining to'lov qobiliyatini kuzatib boradilar. Kreditlarni o'z vaqtida qaytara olmagan qarzdorlar bank talabi bilan o'z korxonalarini boshqarish huquqidan mahrum bo'ladilar.

Kredit risklarini boshqarish usullari.

Differenziatsiya– qarz oluvchilarning kreditga qobilligini baholash hamda uning reytingidan kelib chiqqan holda kreditlash shartlarini belgilash.

Kredit mablag'larining diversifikatsiyasi – kreditlashning turli xil ob'ekt va ko'rinishlarini amaliyotga joriy etish, muddati bo'yicha kredit portfelining muvofiqligini ta'minlash va boshqalar.

Risklarni chegaralash – alohida tarmoqlar va bir qarz oluvchiga to'g'ri keluvchi kredit miqdorlarining limitini o'rnatish, yirik qarz oluvchilar uchun kredit miqdorinin limitini belgilash va muammoli kreditlarni boshqarish.

Risklarni xedjirlash - hosilaviy moliyaviy instrumentlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish.

Risklarni bo'lish – yirik loyihalarni hamkorlikda kreditlash doirasida boshqa banklar bilan munosabatlar o'rnatish.

Kredit risklarini baholash bo'yicha xulosalarimiz shundan iboratki, jahon bank amaliyotida kengroq tarqalgan bir necha usullar, ya'ni Simulation Scenario, Monte Carlo, Delfi, Stress testing, Historical Simulation usuli shu bilan birga balli baholash usullari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga hos xususiyatlarga ega ekan. Bu usullardan biri ma'lum bir stenariyga asoslansa, ikkinchisi statistik va matematik modellarga asoslangan, yana boshqasi zanjirli, juftlab taqqoslashni nazarda tutadi. Kredit risklarini baholashning bunday usullari O'zbekiston bank tizimi tajribasida qo'llanilmaydi. Bu usullarni bank amaliyotida qo'llanilishi risklarni baxolashda xilma-xillik bo'lishi va buning natijasida birining kamchiligi ikkinchi usul yordamida to'ldirilishi mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. KREDIT RISKI VA ULARNI BOSHQARISHNING TAHLILI. Muazzamov Akmal.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947- sonli Farmoni. 2017 yil 7-fevral.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. – Toshkent: “O'zbekiston”. 2017.-48b.
4. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: “IQTISOD- MOLIYA”, 2018.
5. Abdullayeva Sh.Z. Omonov A.A. Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2016 yil 120 b.
6. Abdullayeva Sh.Z., Karimov F.Sh., Navro'zova K.N., Ortiqov U.D. Bank resurslari va ularni shakllantirish asoslari. O'quv qo'llanma. 1-kitob T.: TMI, 2014 yil.